

MILLIY IPAK MATOLAR.

Raxmatullaeva Nigoraxon Nizomiddinovna.

*O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchilik
tarixi davlat muzeyi Ko'chma ko'rgazmalar bo'limi bosh mutaxassisi:*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy matolarimiz va ularning kelib chiqishi, turlari va qanday usullarda bo'lgani, bir so'z bilan aytganda ipak, atlas va adras matosining to'qilishi, undagi rang bo'yoqlarini berilish uslubi qisqacha yoritib berilgan. Milliy matolarimizni o'rganish dizayn sohasiga o'zbekona qarash va hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, to'qimachilik sanoatini kengaytirish, milliy liboslarni loyihalashda turli xil ipakli matolardan foydalanishni tushuntirishga harakat qiladi.

Kalif so'zlar: beqasam, krep, qoziq, matolar, milliy, rang, ip, ipak, gazlama, to'qimachilik, san'at, mato, o'tmish, kiyim.

Аннотация. В этой статье кратко разъясняются происхождение, виды и способы изготовления наших национальных тканей, одним словом, плетение ткани адраса, способ ее окрашивания. Изучение наших национальных тканей является узбекским подходом к области дизайна, и предпринимается попытка дальнейшего развития ремесел, расширения текстильной промышленности, объяснения использования различных шелковых тканей в дизайне национальных костюмов.

Ключевые слова: бекасам, кrep, ворсистые ткани, национальный, цвет, нить, шелк, марля, ткань, искусство, прошлое, одежда.

Annotation: This article briefly explains the origin, types and methods of making our national fabrics, in a word, the weaving of adras fabric, the way it is dyed. The study of our national fabrics is an Uzbek approach to the field of design, and an attempt is made to further develop crafts, expand the textile industry, explain the use of various silk fabrics in the design of national costumes.

Keywords: bekasam, crepe, pile fabrics, national, color, thread, silk, gauze, fabric, art, past, clothing.

O'zbek hunarmandlarining qalb qo'ridan yaralgan atlas va adras ham ko'plab matolardan qadrliroq. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'zbekiston to'qimachilik san'ati va dekorativ amaliy san'ati keng rivojlangan edi. An'anaviy o'zbek shoyilari (kanaus, shoyi, xonatlas), nimshoyilar (beqasam, banoras, parpasha, adras) Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ishlab chiqariladi. O'rta Osiyo aslzodalari

shu gazmollardan kiyim kiyishardi. Past tabaqa vakillarining kiyimi esa asosan ip matolardan (bo'z, olacha, susi, janda) tashkil topgan edi.

O'zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolarga ip-gazlama, ipak, jun va gazlamalar kiradi. Ip-gazlama matolarining turlari va navlari juda ham ko'p. Uy sharoitida ip, jun, pilla, teri va boshqa narsalardan mato tayyorlash O'zbekistonda juda qadimdan mavjud bo'lgan. Ipakli va yarim ipakli matolar ishlab chiqarish qisman cheklangan edi. Bu soha asosan ma'lum hududlarda to'plangan bo'lib, ipakli va yarim ipakli matolardan yuqori sinf vakillarigina foydalanishgan. Chunonchi, ipakli va yarim ipakli matolar ishlab chiqarish Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari markazlarida, ularga qarashli yirik shahar va qishloqlarda yo'lga qo'yilgan edi. Oddiy mehnatkashlar esa asosan ip-gazlama matolardan foydalangan. Oddiy matolar kundalik yurish-turish uchun, ipakli va yarim ipakli matolardan esa to'y- tantana, bayramlarda kiyish uchun kiyimlar tikilgan. O'tmishda o'lkamizda butun shaharlar faqat ma'lum bir nav va ranglardagi gazlamani to'qishda ixtisoslashgan edi. Badiiy to'quvchilikning mahalliy maktablari mavjud edi. Bularning barchasi matolarni bo'yash san'atining yuksakligi, mahalliy gazlama to'qish uslublari, ular qo'lidan chiqadigan matolar rang-bo'yog'i va gullarning bir biriga o'xshashligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Quyida mana shu matolarning ayrimlariga bir ikki og'iz ta'rif berib o'tamiz. Beqasam – yo'l-yo'l gazmol undan asosan erkaklar uchun ustki choponlar, bolalar uchun kundalik kiyiladigan to'nlar, ko'rpa-ko'rpachalar tikilgan.

Banoras – beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo'lmish paranji tikilgan.

Adras – abr iplari bilan gul solingan nimshoyi gazmoldir. Guli ikki tomonlama bo'lganligi uchun ayrim joylarda duro'ya deb ataladi. Arqoq ipi yo'g'onroq bo'lganligi uchun gazlama yuzasida ko'ndalang chiviqlar hosil bo'ladi. Gullari abr uslubida bo'lib sariq, ko'k, pushti, qizil ranglar qo'llanilgan.

Beqasam, beqasab – yo'l-yo'l gulli pishiq mato yuzasida ko'ndalang chiziqlar (g'adirbudirlik) hosil bo'ladi. To'qish jarayonida arqoq ipi ho'llanib turiladi. Maxsus ishlov berib kudunglangandan so'ng beqasamning bir tarafi atlasdek silliq, bir tarafi tovlanib turadi. Oldindan bo'yalgan tanda iplari ishlatilishi natijasida beqasam guli ikki tomonlama xilma xil va rang-barang bo'ladi. O'rta Osiyoning yirik ipakchilik markazlarida ishlab chiqarilgan beqasamlar qalin yupqaligi, mato enining tor-kengligi, rang xillarining tanlanishi, yo'l yo'l gullarining tartibi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Buxoro – Samarqand beqasamlarining arqoq ipi yo'g'on, mujassamoti markazi oddiy bir me'yorda takrorlanuvchi aniq keng (pushti,sariq, zangori yoki pushti,

binafsha, sariq tusli) yo'llardan qirg'og'i esa hoshiya yo'llardan iborat. Bundan tashqari, "zanjira" gullar, abr nusxa yoki turli kvadrat, chiziqcha, mayda gullar va boshqa tasvirlar qo'shib bezatilgan. Mahalliy yorqin kaloritli ranglarga boy. Beqasam – Buxoro, Samarqand vodiysida olacha nomi bilan ham mashhur.

Farg'ona vodiysi beqasamlari yupqa va mayin, chunki arqoq ipi ingichkaroq, guli asosan, sovuq feruza binafsha ranglardan iborat, ko'proq bo'r ko'k tusli va turli xil yashil ranglarning bir-biriga mayin o'tishi bilin boshqa beqasamlardan ajralib turadi. Ba'zi an'anaviy gullari ("beshkashta", bayroq")da yashil rangga yorqin pushti rang aralashtirilgan. Qadimda kuyov to'nlariga ishlatilgan Namangan "oq beqasam, asosan, oq, sariq, yashil tusli qilib to'qilgan. Namangan, Marg'ilon, Qo'qon to'qimachilik fabrikalarida beqasamning oq, chiviq, olti katak, marmar va boshqa turlari ishlab chiqariladi. Beqasamdan kiyim (to'n, kamzul, ko'ylak va boshqalar) ko'rpacha va boshqa tayyorlanadi.

Atlas (arab –tekis, silliq) –tanda va arqoq iplar tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo'yab bezatiladi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi, shunga ko'ra u tovlanib turadi. Ilgari mato yuziga kudung urilgan, hozirgi kunda atlas issiq satxli baraban kalandrdan o'tkaziladi. O'zbek atlaslari rang-barang nafis gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg'unlashib, matoda yaxlit go'zal bir naqshni hosil qiladi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to'qilish usulidadir. Atlasning to'qilish jarayoni: to'rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili dastgohda to'qiladi. Tandaga gulalar tandaning har sakkiz naxi to'qilishda ustma-ust keladigan qilib ko'tariladi, naxlar tepkilarga muvofiqlashtirib, gulalar o'ynag'ichlarga ulanadi. Tepki bosilganda gulaning biri pastga tortilib, ustma-ust yotgan naxlardan birining komi ochiladi va orasidan birinchi arqoq ipi o'tadi, ikkinchi tepki bosilsa, ikkinchi komi ochilib, ikkinchi arqoq ipi o'tadi. Shu tariqa sakkiz nax orasida sakkiz arqoq ipi matoning ustiga tomon joylana borib to'qima bir yuzlamaga aylanadi.

Qadimda atlaslar dastagi dastgoh (qo'l) larda to'qilgan. Hozir dastagi dastgohlarda ham, mexanik dastgohlar (to'quv dastgohlari)da ham to'qiladi. Mexanik dastgohlarni elektro dvigatel harakatlantiradi. O'tmishda atlasning bir kiyimligi yaxlit holda ham, ikki bo'lakka bo'lib ham sotilgan. Ikki bo'lakka bo'lingan atlasning har bir bo'lagi bir toqa atlas, ikkala toqasi (bir kiyimligi) bir jo'ra atlas deb nomlangan.

Atlas sintetik tolalar paydo bo'lishidan oldin asrlar davomida ipakdan qilinganligi sababli, Xitoy ming yillar davomida atlas ishlab chiqarishda

monopoliya edi. 1300 yillarda Yevropada ipak ishlab chiqarish boshlandi. Bu atlasni hech bo'lmaganda yuqori sinf uchun ancha qulay va arzonroq qildi va u tez orada zodagonlarning va sevimli matolaridan biriga aylandi. Mazkur turdagi gazlamalarni chiqaradigan to'quvchilik markazlari Samarqand, Urgut, Nurota, Buxoro, Zandana, Farg'ona vodiysida Namangan, Beshariq tumanlarida mavjud edi. Adras va atlas to'qish Marg'ilonda juda qadimdan rivojlangan va boshqa joylarga tarqalgan. XX asr boshlarida bu yerda ko'plab atlas, adras to'quvchi hunarmandlar bo'lishgan. Adras 1920 yillargacha Marg'ilon, Xo'jand, Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda to'qilib, O'rta Osiyo bozorlaridan tashqari Afg'oniston, Xitoy kabi qo'shni mamlakatlarda ham sotilgan. Iplarni abr usulida bo'yash ham katta mahorat talab etadi. E'tiborlisi, barcha ranglar tabiiy usulda bo'yoq beruvchi giyohlardan tayyorlanadi.

Abr so'zining ma'nosi bulut deb ta'riflanadi. Abr matolari eramizdan avvalgi XIX asrlarda rivojlangan. Atlas va adraslarning bir necha turlari mavjud: "Marg'ilon", "Navro'z", "Rasadxona", "Bibixonim", "Nog'ora", "Kiprik", "Panja", "Kelinchak", "Bargi karam", "Chaqirim", "Nomozshomgul", "Shaxmat", "Qora ko'zim".

Marg'ilon Buyuk ipak yo'lida joylashgan bo'lib, madaniy almashinuv va iqtisodiy hamkorlikda muhim o'rin egallagan. Eramizdan avvalgi III asrda Marg'ilon hunarmandlari ipakli matolarni ishlab chiqarishni rivojlantirishgan va Osiyodan Yevropaga qadar yetkazib bergan.

2007 yilda Atlas va Adras to'qish ana'nalarini davom ettirish va kelajak avlodga yetkazish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO hamkorligida Marg'ilon shahridagi Sayid Axmad Xo'ja madrasasida Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi tashkil etildi. Markazda quyidagi avlod vakillari faoliyat ko'rsatadilar: Rasuljon va Raximjon Mirzaahmedovlar (9 avlod vakillari), Alisher Axmadaliev va Maxmudjon Tursunov (3 avlod vakillari) hamda Sherzodjon G'oziev (2 avlod vakili).

Marg'ilon shahrida atlas, adras, beqasam va shoyi to'qish bilan 500 dan ortiq ustalar shug'ullanib keladilar. Ularga yordam beruvchi oila a'zolari va shogirdlari bilan hisoblaganda 3000 dan ortiq odam shu kasb bilan shug'ullanishgan. Markaz ustalari qadimiy matolarni va tabiiy bo'yoqni shuningdek, boshqa maktablar matolarini tiklashda faol ishtirok etib kelishmoqda. Qadimiy Buxoro "A'lo Baxmal" matosi to'qilish texnikasini qayta tiklaganligi uchun 2005 yilda Rasuljon Mirzaaxmedov YUNESKOning a'lo sifat sertifikatini bilan taqdirlangan.

Markaz tomonidan Marg'ilon shahridagi "Milliy hunarmandchilik kasb hunar kolleji" bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha shartnoma imzolangan. Har yili 100 dan ortiq kollej talabalari markazda milliy matolarni tayyorlash va tabiiy bo'yoqlardan foydalanish bo'yicha amaliyot o'taydilar.

Darhaqiqat, yilning istalgan paytida kiyilsa ham, o'zining jilvasi bilan ko'rgan ko'zni quvnatadigan atlas va adras o'zbek xalqining qadimiy milliy matosi hisoblanadi. Ushbu matodan tikilgan liboslar ayollarimizni yanada go'zal va latofatli qilib ko'rsatadi.

Namangan viloyatida ipak xomashyosiga jilo berib, o'ziga xos tarzda shoyi matolar to'qib chiqaradigan hunarmandlar ko'p. Ipakchilik sohasini rivojlantirish va mato ishlab chiqarish uchun xususiy tadbirkor va hunarmandlarga keng imkoniyatlar yaratilganligi, bu sohada yangi qirralarning ochilishiga sabab bo'ldi. Milliy atlas va adraslarimiz ruhiyatni tetiklashtiruvchi, kayfiyatni ko'tara olish kabi xususiyatlarga ham ega desak mubolag'a bo'lmaydi.

Har zamon yangilanib, taraqqiyot yuksalgan sari ipak matolar — atlas va adrasning shakli-shamoyili ham o'zgarib boraveradi. Bu degani, ushbu matodan tikilgan bichimlar har qanday zamonda ham zamonaviy rusumlar shoxsupasining yuqori qismida, malikalar libosi sifatida o'z joyini bo'shatmay boraveradi deganidir.

Ipak tolasi – ingichka, pishiq, yaltiroq, tovlanib turadigan tola; ipak qurtining ipak ajratuvchi ikkita bezidan chiquvchi suyuqlikdan hosil bo'ladigan tabiiy to'qimachilik xomashyosi. Ipak ipak qurti pillasini o'rab turgan uzunasiga bir biriga yopishmagan, seritsin (ipak yelimi) bilan qoplangan va yelimplangan ikki toladan iborat. Bu tolada 70-75% fibrion (oqsil modda), 20-25% seritsin, 2 – 3 % turli mineral, 1 – 1.5% mum va yog'lar bor. Ipak qurtining turiga qarab, pilla tolasining uzunligi 400 – 1500 m, ingichkaligini ifodalovchi ko'rsatkich – mik raqami № 2500 – 3500 yoki 0,4 – 0,3 teks bo'ladi. Pilladan olinadigan tola juda ingichka bo'lganligi sababli sanoatda ishlatilmaydi. Pillakashlik fabrikasida pillani qaynatib, har bir pilladagi tola uchi topib, chiviladi. Bitta pilla ipining uzunligi ikki kilometrga teng. Ipakning xususiyatlari va tashqi ko'rinishi xom ashyoning sifatiga, ishlov berish usullariga, iplarni to'qish turiga va xo'jayinning tasavvuriga bog'liq. Quruq, toza ipak matolar qisqarishi va pasayishi mumkin. Ipak matolar juda yumshoq va silliq bo'lib, qog'oz varaqlariga yaxshiroq joylashishi mumkin. Keyin naqsh matoga, shuningdek barcha qatlamlar bir biriga kesilgan holda birlashtiriladi. Ko'pgina ipak matolarni paxta yoki 100% poliestr bilan har qanday sifatli ip bilan tikish mumkin. Kiyim buyumlarini qurish uchun ipak iplar unchalik muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Ko'pincha ipakdagi tolalar

qisqa . Ular bir biriga o'ralib, ajoyib ko'rinishga ega bo'lishsa-da, ular tikkan ipak kabi kuchli bo'lmasligi mumkin va ularni osonlikcha sindirib-sindirib tashlashlari mumkin.

Baxmal matosi – mayin, silliq, patli gazlama. Patlari tabiiy yoki sun'iy ipakdan, zamini ip yoki kanopdan to'qiladi. Baxmal to'qishda ikkita o'rish ipi ishlatiladi: biri zamin, ikkinchisi esa pat hosil qiladi. Ikkinchi o'rish iplari birinчисidan 4 – 6 marta uzun bo'ladi, chunki ish jarayonida bu iplar arqoq o'rniga kiritilgan asos atrofida tugma bandlar hosil qiladi, so'ngra bandlar maxsus pichoq bilan kesilganda hurpayib, patlar hosil qiladi. O'zbekiston (Buxoro va Samarqand)da qadimdan ishlab chiqariladi. Boburning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand jahondagi ko'pgina mamlakatlarga och qizil baxmallar chiqarib sotgan. Baxmal ishlab chiqarish Buxoroda, ayniqsa, XIX-asrda rivojlangan. Baxmal ko'pincha handasaviy va abrli naqshlar bilan bezatilgan. Abrli baxmal matosida naqshlar ikkinchi o'rish iplarida hosil qilinadi.

Baxmal matosi xalqimizning asriy an'analarini saqlab kelayotgan bebaho merosdir. Bizga yaxshi ayonki qadimda Marg'ilonda ushbu mato turi juda yuksak qadrlangan. E'tiborli tomoni shundaki, baxmal hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Odatda bu mato ham qo'l dastgohida to'qilgan va ushbu matoni hunarmandlar kuniga eng ko'pi bilan 1metrdan to'qishgan. Bu matodan tayyorlangan liboslar kuz va qish mavsumi uchun juda qulay va issiqligi bizga sir emas.

Baxmal matosining tarkibi 2 xil bo'ladi, birinچisi 80% ipak 20% paxta, ikkinچisi esa 100% ipakdan iboratdir. Baxmal matosidan tikilgan liboslarni qadimda faqat Xon va amaldorlar kiyishi mumkin bo'lgan. Sababi ushbu mato juda qimmatbaho xisoblangan.

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida ham matolarning turli xillarini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari matolar o'rin olgan ekspozitsiya zalida ushbu mato to'qish dastgohi ham o'rin olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'ati ensiklopediya. Toshkent. 2016
2. Развадовский В.Н., Опыт исследования кустарных промыслов в Туркестанском крае, Т. 1916.
3. Хафизов Н. Р., Шелководство Средней Азии, Т., 1969;

4. Шёлк Узбекистана (Сб. статей), Т., 1971.
5. О.Ш. Rahmatova, M.A. Sharipova. Milliy matolar jozibazi va yaratilish tarixi. Namangan-2019.
6. O'ralov L. S. "Jakard to'qimadagi tukli trikotaj polotnolaridan foydalanib ayollar uy kiyimini tayorlash texnologiya jarayonlari tadqiqi". Magistrlik Akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Namangan-2020
7. Muxammedova Z.K. "OP-ART" uslubida yoshlar zamonaviy liboslarini loyixalash. Akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2014.
8. Shukurov F.J. "Adras to'qimasini fizik-mexanik xususiyatlarini tahlil qilish". Diplom loyiha ishi. Toshkent-2016
9. Internet saytlari; <https://uz.wikipedia.org/wiki/Baxmal>,
<https://www.youtube.com/watch?v=WL3Kjckau4>